

Ogohlik va hushyorlik - davr talabi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga nisbatan qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, inson salomatligini ta'minlashga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'ngi yillarda yangi turdag'i sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda. Shu munosobat bilan 2024-yilning 20-sentabr kunidan 20-oktabr kuniga qadar Toshkent shahrida "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish" oyligi deb e'lon qilingan. 2024 yil 25-sentabr kuni "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti "Yer resurslari va kadastr" fakulteti tashabbusi bilan 1-kurstalaba yoshlariga "Giyohvand va psixotrop moddalar umr zavoli" mavzusida targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Dotsent O'tkir Islomov axboroti

Universitet matbuot xizmati